ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-3, ISSUE-4

SINESTEZIK METAFORALARDA SEZGILARNING VOQELANISHI

Mavluda Oripova

Annotatsiya

So‘ngi paytlarda til o‘z egasi bilan birgalikda tadqiq qilinmoqda va til o‘z sohibining butun xususiyatlarini, jumladan, ruhiy olamida kechayotgan jarayonlarni va tafakkur taraqqiyotini ham o‘zida namoyon qiladi. Murakkab neyropsixologik va kognitiv jarayon bo‘lgan sinesteziya ham tilda o‘z ifodasini topadi

Kalit so‘zlar: *sinesteziya, sinestet, sezgi, metafora, leksik ma’no.*

So‘ngi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda metaforaga bilish jarayonining o‘ziga xos aspekti, usuli, fikrlash mexanizmi, inson ongi va sezgisining idrok etganidan-da zalvorliroq va ahamiyatliroq fenomeni ekani to‘g‘risidagi xulosalar o‘zining ilmiy tasdig‘ini topgani ayni haqiqatdir.

Atoqli ispan adibi va faylasufi Xose Ortega-i- Gasset o‘zining “ Ikki buyuk metafora” maqolasida metaforani “tafakkurning zaruriy quroli, ilmiy fikrning shakli”, deb ta’riflaydi [Хосе Ортега-и-Гассет, 2000]. Muallif fanda metaforaning ikki xil qo‘llanishga ega ekanligini yetarlicha izohlaydi. Olim hali ma’lum bo‘lmagan bir hodisani kashf etar ekan, ya’ni yangi tushunchalar yaratar ekan, albatta, uni nomlanishi lozim. Mutlaqo yangi so‘z til egalariga hech narsa berolmaydi, shuning uchun olim tarkibidagi har bir so‘z tegishli ma’no bilan to‘yingan mavjud so‘z boyligidan foydalanishga majbur. Tushunarli bo‘lishi uchun olim na’nosi yangi tushunchaga olib borish imkoniyatiga ega bo‘lgan so‘zni tanlaydi. Saqlanib qoladigan eski ma’no vositasida, uning yordamida bu so‘z yangi ma’no kasb etadi. Bu esa, metaforaning ayni o‘zidir. Adibning ta’kidlashicha, metaforaning ikkinchi xil qo‘llanishi ko‘proq psixik, abstrakt tushunchalarni ifodalash bilan bog‘liq. Psixik obyektlarni nomlashgina emas, hatto tasavvur qilishning o‘zi ham qiyin, ularning jismoniy o‘lchovlari yo‘q. Masalan, *ko‘ngil eshigi* deganda eshik ifodalayotgan joyni, ma’noni aniq tasavvur qilish mushkul. Bu so‘z *uyning eshigi* ifodasida anglatgan joy aniq, ayni so‘z tegishli assotsatsiya asosida psixik obyektga ko‘chirilgan va uni tasavvur qilishga imkon yaratgan. Demak, xuddi shu yerda metaforaning bilishdagi teran va muhim vazifasi namoyon bo‘ladi. Metafora faqat nomlash va ifodalash vositasi emas, ayni paytda “tafakkurning muhim quroli” ekanligi ko‘rinadi. Tasavvur qilish qiyin bo‘lgan, idrokga birdan bo‘y bermaydigan tushunchalarni o‘zimizniki qilish uchun o‘zimizga tanish, yaqin bo‘lgan obyektlar, tushunchalar metafora yo‘li bilan beminnat vositachilarga aylanadi.

Jahon tilshunosligida metaforaning bir necha turlari o’rganilgan bo’lib, sinestezik metaforalar talqiniga doir ham bir qancha qarashlar mavjud. Tilshunos Stefan Ullman “ Semantik universaliyalar” nomli maqolasida quyidagicha yozadi: “Sinestezik metaforalar deb nomlangan bu hodisaning mohiyati shundan iboratki, ma’nosi bir sezgi organi bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z boshqa sezgi organiga tegishli bo‘lgan ma’noda qo‘llanadi. Masalan, ushlab ko‘rish idrokidan eshitish idrokiga yoki eshitish idrokidan ko‘rish idrokiga o‘tish voqelanadi”.

Simvolistlar bunday hodisani estetik ta’limot darajasiga ko‘tarishgan. Bodler “ tovushlar, rangar va hidlar bir-biri bilan mutanosibligi” haqida gapirgan bo‘lsa, Rembo unli tovushlarning rangi haqida sonet bitgan. Sinestezik metaforalarga oid qarashlar juda qadimdan mavjud bo‘lib, yunon, hind, arab tillariga mansub asarlarda keltirilganligini tilshunos olimlar ta’kidlab o’tadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-3, ISSUE-4

Sinestezik metaforalarni lingvopoetik jihatdan mukammal o‘rgangan olima Anna Anatoliyevna Zabiyakodir. U o‘zining doktorlik dissertatsiyasida , avvalo, mazkur atama haqidagi qarashlarini ilmiy ba’yon qiladi. U termin sifatida fanda “*sinestetizm”, “sinesteziya”* kabi bir necha ko‘rinishlari mavjudligini, lekin “sinesteziya” deb qo‘llash maqsadga muvofiqligini aytib o‘tadi. Bunda u yunoncha *aisthetikos*- estetika so‘zining asl ma’nosi “ hissiyotga” aloqador ekanligini hosobga olib “sinestetizm” tarkibidagi “*sin”*qismining ma’nosi “birga, birgalikda” ni ifodalanishidan kelib chiqib, mazkur atamaning nomlanishini “sezgidoshlik, tuyg‘ular hamkorligi” deb ataydi.

Metaforani jiddiy o‘rganish o‘zbek tilshunosligida ham XX asrning so‘ngi yillarida o‘zining ilmiy-tadqiqiy rivojini topdi. O‘zbek tilshunosligida metaforaning bir qancha turlari tadqiqotchi olimlar tomonidan mukammal o‘rganildi. Lekin metaforaning aynan sinestezik turi hali filologiya ilmimizda monografik ko’rinishda o‘rganilmaganligi yetuk tilshunos olimlarimiz tomonidan ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbek tili leksik qatlamida ko‘p qirrali izlanishlar olib borgan tilshunos olim M. Mirtojiyev metaforalarni nutq hodisasiga va til hodisasiga oid turlarga ajratadi va mazkur hodisa haqida shunday deydi: “ Sinesteziya metaforaning shunday bir ko‘rinishiki, unda hosila ma’noning ma’lum sezgi bilan qabul qilingan referenti hosil qiluvchi ma’noning boshqa sezgi bilan qabul qilingan referentiga qiyoslangan, o‘xshatilgan bo‘ladi. Referentlar umuman boshqa-boshqa sezgi bilan qabul qilinsa ham, ularning xususiyati kishi ongida umumlashtiriladi va bir xil tasavvur etiladi. Aslida bu o‘xshatilgan hech qanday o‘xshashlikka ham hech qanday umumiylikka ham ega emas. Masalan, *mayin* so‘zining genetik ma’nosi tola yoki u bilan bog‘liq buyumning belgisini ifoda etadi. Bu so‘zning hosila ma’nosi ovozning ohista va yoqimli belgisini ifodalaydi. Bunda hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlarining umuman sezgiga ta’sir etish xususiyatlari o‘zaro o‘xshatilgan va shunga ko‘ra hosila ma’no yuzaga keltirilgan, ya’ni sinesteziya sodir bo‘lgan” [Mirtojiyev, 2010:96].

Yetuk tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov o‘zining “ Tuyg‘ular taloshi yoxud sezgilar hamkorligi manzaralari” maqolasida sinestezik metaforalar haqida shunday yozadi: “ Tafakkur mo‘jizasi bo‘lgan sinesteziya, tuyg‘ular taloshini baralla namoyon qiladi va shu asosida nafaqat hissiyotlar olamidagi, balki ularning ifodalovchilari bo‘lmish so‘zlararo munosabatlar olamidagi noodatiylik asosida kutilmagan so‘z chaqinlarini yuzaga keltiradi, bu chaqinlar, shubhasiz, badiiy komillik pillapoyalariga tabiiy bir tarzda iddaosiz chiroq tutadi”. Olim mazkur maqolasida sinestezik metaforalarning badiiy ijodda zangin va rangin lingvopoetik imkoniyatlar zahirasi ekanligini o‘zbek ijodkorlarining bir necha misralarini tahlil qilish orqali ochib beradi.

Sinesteziya termini grekchadan olingan bo‘lib, birgalikda his qilish degan ma’noni beradi. Sinesteziya muayyan sezgi a’zolarining ta’sirlanishi orqali boshqa sezgi a’zolarida ham shunga mos tuyg‘ularning paydo bo‘lishidir. Demak, sinesteziya va uning leksik ma’no taraqqiyotida *sezgilar* yetakchi omil hisoblanadi.

Sezgilar narsa va ularning xossalari, tarkibiy qismlar, xususiyatlari, shakllari, harakati birlamchi bo‘lib, sezgilarning o‘zi tashqi va ichki qo‘zg‘atuvchilarning sezgi a’zolariga ta’sir ko‘rsatishining mahsulidir. Sezgilarning bunday vazifalari lingvistikaning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri *fonosemantikada* yaqqol ko‘rinsa, *sinestezik metaforalarda* esa murakkab tushunchalar mohiyati sezgilar orqali sodda ochiqlanadi.

Sezgilar moddiy borliqning, voqelikning haqqoniy tasvirini in’ikos qiladi, ya’ni moddiy olam

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-3, ISSUE-4

qanday ko‘rinishga ega bo‘lsa, ular xuddi shundayligicha o‘zgarishsiz aks etadi. Lekin sinesteziyada tuyg‘ular o‘zaro hamkorlikda ishlaydi, ya’ni bir sezgi o‘z o‘rnini boshqa bir sezgiga boshatib beradi. Biroq olamni bunday anglash sinesteziyani o‘rganishning yuqori saviyadagi tadqiqot darajasida olib borishini talab qiladi. Bunday tadqiqotlar ilmiy tajribalarga asoslangan tarzda olib borilmasa, sinesteziya – idrok etish patalogiyasi deb qaraladi. Lekin sinestezik metaforalarda esa aksincha, boshqa-boshqa sezgi orqali idrok qilinishi kerak bo‘lgan, umuman o‘xshamagan voqeliklar bir xil nom bilan aytiladi va bu o‘rinda, xalqning dunyoni ko‘rishdagi, uni nomlashdagi ijodkorligi namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida *shirin* leksemasi ta’m bilish sezgisi orqali his qiluvchi tuyg‘uni ifodalaydi va u istemol qilinadigan narsalarga nisbatan ishlatiladi. Quyida esa bu leksema turli sezgilar bilan hamkorlikda o‘ziga xos naminatsiyalar yaratganligini ko‘ramiz:

1. Ta’m ⟶ Eshitish

Ta’m belgisi eshitish orqali hosil qilingan ovozga o‘xshatiladi: *shirin choy –*
*shirin ovoz. Sening bilan **shirin so‘zim**,*
*Zahar yutsam **shakar** bo‘lgay.* (E. Vohidov).

2. Ta’m ⟶ Ko‘rish

Ta’m belgisi ko‘rish orqali hosil qilingan belgiga: shirin choy –shirin bola. *Hamsuhbatim, Ham ulfatim,Jajji **shirin go‘daklar**.* (E. Vohidov).

3. Ta’m ⟶ Hid

Ta’m belgisi hidlash orqali hosil qilingan belgiga: shirin olma – shirin hid. ***Shirin atir hidi** dimog‘iga urildi..*

Bizga ma’lumki, badiiy ijodda metaforalar yetakchi unsurlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sinestezik metaforalar ijodkorning noyob quroli sifatida namoyon bo‘ladi. Ijodkor, shoir ko’ngil odami. Oddiy insonlardan farqli o‘laroq, o‘ziga xos sezgilari orqali dunyoni rangin ko‘ra oladi. Quyida Rauf Parfining

“ Yana qaytib keldim” she’riga yuzlanamiz.

Targ‘illanib bormoqda osmon,
***Oppoq hidga** to‘lmoqda bag‘rim.*
Aytingiz-chi, bormi sog-omon
Shahlo ko‘zli mening targilim?
*Og‘ushida **zangori sezgi**,*
*Kiprigimda **suyuq hayajon.***
*Ko‘zlarimda **yumaloq sevgi**,*
Salomatman men ham, onajon!

O‘ziga xos tuyg‘ularini hech bir ijodkornikiga o‘xshamagan “original” ko‘rinishda ifodalay oladigan xassos shoir Rauf Parfini hech ikkilanmay *sinestet shoir* deya olamiz. Chunki ko‘plab adabiyotshunos olimlarni shoirga “***ko‘ngil va his-tuyg‘ular musavviri***” deya nisbat berishi bejis emas, albatta. Ijodkorning o‘ziga xosligi shundagi olamni idrok etishda qiyin bo‘lgan abstrakt tushunchalarni sodda sinestezik metaforalarda ifoda etadi. Ammo shaklan sodda ko‘ringan bu ko‘chimlarning semantik tabiati shunchalar murakkabki, bevosita tinglovchini chuqur o‘yga toldiradi. Yuqorida keltirilgan misralarida ***oppoq hid, zangori sezgi, suyuq hayajon, yumaloq sevgi*** kabi sinestezik metaforalar qo‘llangan.Ushbu anstraktsiyalar shoir ruhiy olamining evrilishlari talqinidir. Oppoq, zangori, suyuq, yumaloq so‘zlarining mavhumlashmasining

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 8.848 / 2024

emotsionalligi ham har bir kitobxonda turli darajada ro‘y beradi. Masalan, oppoq hid – “bag‘ir to‘la shirin orzular”, zangori sezgi –“sodda, beg‘ubor yoshlik”, suyuq hayajon – “sog‘inch to‘la ko‘z yosh”, yumaloq sevgi – “imkonsiz muhabbat” kabi.

Badiiy ijodda, ayniqsa, lirikada sinestezik metaforalarni qo‘llash ko‘plab shoirlar ijodida ko‘zga tashlanadi. Lekin ko‘ngil musavviri bo‘lgan Rauf Parfi bu tafakkur mo‘jizalaridan o‘rinli foydalanib, lingvopoetik mahoratini yaqqol ko‘rsata oladigan benazir ijodkordir.

Demak, xulosa qilib aytganda, sinestezik metaforalarda umuman o‘xshamagan voqeliklar bir xil nom bilan aytiladi va xalqning dunyoni ko‘rishdagi, uni nomlashdagi ijodkorligi namoyon bo‘ladi. Har bir xalq egalarida muayyan sezgi natijasida hosil bo‘lgan tuyg‘ular boshqa bir tuyg‘uga o‘xshatiladi va bevosita tilda akslanadi. Bu o‘rinda ikki sezgining o‘zaro qorishiqligi emas, balki xalq ruhiyati va tafakkurining o‘ziga xosligi haqida gap boradi, ya’ni bu jarayonlar lingvokulturologik yondashuv asosida ilmiy tahlil etilishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

Забияко А.А. 2018.Синестезия: метаморфозы художественной образности. – Амурского государственного университет.

Зайцева М.Л.2010. “Чуствознание”: когнитивный потенционал синестезии. Вестник МГУКИ.

Зайцева М.Л.2016. Синестезическое восприятие произведений искусства: обогащение и гармонизатция когнитивных процессов.

Звегинцев В. Л. 1957.Семасиология. – М.: МПУ. – С. 236-261.

Миртожиев М. 2010. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: Mumtoz so‘z, – Б. 5.

https://filology.ru